NAVOIY VILOYATI NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 15-oktabr | 233-5-73-Q/24 | Navbahor tuman hokimligi

Tumanda 2025 yilda Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 20 oktyabrdagi O‘RQ-642-son “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 20 oktyabrdagi O‘RQ-641-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunining 43- moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi PQ-401-sonli qarorining 8-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi PQ-3001-son “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan 2025yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, tumanKambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi 2024 yil 4-sentyabrdagi 219-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan;

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 39-moddasiga asosan ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish uchun tumandagi yigirma nafardan ortiq ishlovchi xodimlari mavjud 72 ta korxona, tashkilot va muassasalarda xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha umumiy sonidan 179 kishini tashkil etadigan 10 foiz miqdorida,

shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali otaonalar uchun 24,6 foiz - 44 kishi;

umumiy o‘rta maxsus, kasb xunar talimi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek oliy talim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha talim olgan bitiruvchilari uchun 42,0 foiz – 75 kishi;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari saflaridan muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 6,7 foiz - 12 kishi;

nogironlar uchun 3,3 foiz - 6 kishi;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 1,7 foiz - 3 kishi;

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 4,5 foiz - 8 kishi;

Odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 2,2 foiz - 4 kishi;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan boshqa toifalari og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar toifasi 11,2 foiz 20 kishi;

ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifalariga oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar toifasi 3,9 foiz 7 kishi; miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin va tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar kesimida ilovadagi jadval asosida tasdiqlansin.

2. Korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining 1-bandida ko‘rsatilgan ish o‘rinlarini tashkil etish,

ish joylari sanitariya-gigiena normalariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlash;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024 yil 20 dekabr sanasiga qadar kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025 yilning 10 aprel sanasidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va buyruq nusxalarini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari;

mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan shaxslar toifalarini muhtojlar uchun ilovada belgilangan zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlari sonidan kelib chiqib ishga joylashtirishi shart,

2025 yil kvota loyixasida zaxiranlangan ish o‘rinlari Yagona Milliy Mehnat Tizimi (YaMMT) dasturida aks ettirilishi shart,

Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining yo‘llanmasi bo‘yicha ushbu shaxslar mazkur qaror 1-bandida ko‘rsatilgan toifaga tegishli bo‘lganda zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rniga ishga joylashtirish tashkilot tomonidan rad etilishi tashkilot mansabdor shaxslarining qonun hujjatlarida belgilangan javobgarligiga olib keladi.

4.Mazkur qarorni bajarmagan tashkilot mansabdor shaxsga nisbatan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

Ma’muriy javobgarlikning belgilanishi tashkilotni zaxiraga quyiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

5.Korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kuniga qadar tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etib borilishi majburiyligi;

Mavsumiy va vaqtinchalik ish o‘rinlariga muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga quyishga yo‘l quyilmasligi inobatga olinsin.

6.Nogironlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonidan ortiqcha nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar huquqiga ega bo‘lishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7.Tuman hokimligi umumiy bo‘limi (J.Ortiqov) bir hafta muddatda mazkur qarorni ilovada ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazilishini ta’minlasin.

8.Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Juraqulov)ga, tashkilotlar tomonidan ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilganligi,

ushbu ish o‘rinlariga mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan shaxslar toifasi ishga joylashtirilganligi,

ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarorini bajarmagan tashkilotlarning mansabdor shaxslariga jarima solinganligi to‘g‘risida umumlashtirilgan axborotni ishchi komissiyaga yuborilishini va mazkur qarorning ijrosi ustidan nazorat qilinishini ta’minlasin.

Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida “Bandlik jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan haq to‘lanishini tashkil etsin.

9.Tuman hokimining 2023 yil 14 oktyabrdagi 134-5-73-Q/23-son “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi qarori 2024 yil 31 dekabr kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10.Mazkur qarorning rasmiy nashrda e’lon qilinishi va tuman hokimligi vebsaytiga joylashtirilishi ta’minlansin.

11.Mazkur qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Tuman hokimi **А.Ўроқов**

Navbahor tuman hokimining
2024-yil 15-oktabrdagi
233-5-73-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Navbahor tuman bo‘yicha 2025 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari

MANZILLI RO‘YXATI

T/r	Topshiriq belgilangan korxona nomi	MFY	korxonada ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:								
					14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasbhunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilar	Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun xujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun	Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifalariga oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar
1	Navbahor tuman Tibbiyot birlashmasi	Бешработ МФЙ	1744	21	2	10	2	3	0	1	1	1	1
2	Asab ruxiy kasalliklar dispanseri	Қалқонота МФЙ	251	6	2	1	1	0	0	0	0	1	1
3	"NAVOIY VILOYAT BOLALAR FTIZIATRIYA SIHATGOHI" DAVLAT	Қоровултепа МФЙ	141	4	2	1	0	0	0	0	0	1	0

	MUASSASASI												
4	SEO va JSX Navbahor tuman bo'limi	Бешработ МФЙ	74	3	1	1	0	0	0	0	0	1	0
5	Navbahor TYXPTFDK	келачи МФЙ	131	8	2	1	2	0	1	2	0	0	0
6	Tuman Veterenariya bo'limi	Бешработ МФЙ	55	2	0	1	0	0	0	0	0	0	1
7	Obodonlashtirish boshqarmasi	Бешработ МФЙ	198	8	1	1	1	0	1	2	1	1	0
8	Madaniyat bulimi	Бешработ МФЙ	61	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
9	Suv yetkazib berish xizmati	Бешработ МФЙ	45	2	0	1	0	0	0	1	0	0	0
10	Navbaxor tumani 1-son SPORT MAKTABI Davlat muassasasi	Бешработ МФЙ	97	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
11	Navbaxor tumani 2-son SPORT MAKTABI Davlat muassasasi	Ёшкуч МФЙ	35	2	0	1	0	0	0	0	0	1	0
12	Navbahor suv xujaligi va melioratsiya kolleji	Бешработ МФЙ	38	2	0	1	0	0	0	0	0	0	1
13	Navbaxor tumani Ko'ptarmoqli texnikum	Қалқонота МФЙ	21	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
14	Navbahor kasb xunar maktabi	Бешработ МФЙ	79	3	1	1	0	0	0	1	0	0	0
15	Tuman Xalq ta'limi bo'limi	Бешработ МФЙ	55	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
16	№1-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Бешработ МФЙ	120	3	1	1	1	0	0	0	0	0	0
17	№2-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Янгиобод МФЙ	71	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
18	№3-sonli umum o'rta ta'lim maktab	янги хаёт МФЙ	81	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
19	№4-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Гулистон МФЙ	59	2	0	1	0	0	0	0	0	1	0
20	№5-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Арабхона МФЙ	111	3	1	1	0	0	0	0	1	0	0
21	№6-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Оқолтин МФЙ	91	2	0	1	1	0	0	0	0	0	0

22	№7-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Қоражон МФЙ	52	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
23	№8-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Навбаҳор МФЙ	96	2	0	1	0	0	0	0	0	1	0
24	№9-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Қалқонота МФЙ	135	4	1	1	1	0	0	0	0	1	0
25	№10-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Уч тут МФЙ	67	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
26	№11-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Уч тут МФЙ	41	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
27	№12-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Янгикуч МФЙ	103	3	1	2	0	0	0	0	0	0	0
28	№13-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Қизилработ МФЙ	57	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
29	№14-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Навкар МФЙ	105	3	1	1	0	0	0	0	0	1	0
30	№15-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Сарой МФЙ	152	4	1	1	1	0	0	0	0	1	0
31	№16-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Корвон МФЙ	81	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
32	№17-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Хашман МФЙ	74	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
33	№18-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Армижон МФЙ	52	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
34	№19-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Қоровултепа МФЙ	62	2	0	1	0	0	0	0	0	1	0
35	№20-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Қизилой МФЙ	59	2	0	1	0	0	0	0	0	1	0
36	№21-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Ўзбекистон МФЙ	118	3	1	1	1	0	0	0	0	0	0
37	№22-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Янги йўл МФЙ	69	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
38	№23-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Пахтакор МФЙ	81	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
39	№24-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Дўлдўл МФЙ	44	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
40	№25-sonli umum o'rta ta'lim maktab	Қоровултепа МФЙ	46	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0

41	№26-sonli umum oʻrta taʼlim maktab	Халовоттепа МФЙ	94	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
42	№27-sonli umum oʻrta taʼlim maktab	Ёшкуч МФЙ	58	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
43	№28-sonli umum oʻrta taʼlim maktab	Қизилработ МФЙ	57	2	0	1	0	0	0	0	0	1	0
44	№29-sonli umum oʻrta taʼlim maktab	Чорвоқгузар МФЙ	46	2	0	1	0	0	0	0	0	1	0
45	№30-sonli umum oʻrta taʼlim maktab	Меҳнат МФЙ	52	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
46	№31-sonli umum oʻrta taʼlim maktab	Қизилтепа МФЙ	65	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
47	№32-sonli umum oʻrta taʼlim maktab	Ялтиробод МФЙ	47	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
48	№33-sonli umum oʻrta taʼlim maktab	Пахтакор МФЙ	46	2	0	1	0	0	0	0	0	0	1
49	№34-sonli umum oʻrta taʼlim maktab	Ю.Бешработ МФЙ	40	2	1	1	0	0	0	0	0	0	0
50	№36-sonli umum oʻrta taʼlim maktab	Буркут МФЙ	50	2	0	1	0	0	0	0	0	0	1
51	№35-sonli umum oʻrta taʼlim maktab	Навкар МФЙ	38	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
52	№37-AFCHMI	Уч тут МФЙ	49	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
53	11-sonli Bolalar musiqa va sanʼat maktabi	Бешработ МФЙ	40	2	0	1	0	0	0	0	0	1	0
54	№1-sonli MTT	Бешработ МФЙ	41	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
55	№2-sonli MTT	Кескантерак МФЙ	41	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
56	№3-sonli MTT	Қизилой МФЙ	30	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
57	№4-sonli MTT	Дўлдўл МФЙ	35	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
58	№5-sonli MTT	Сарой МФЙ	27	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
59	№6-sonli MTT	Навкар МФЙ	42	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0

60	№7-sonli MTT	Янги йўл МФЙ	35	1	0	0	0	1	0	0	0	0	0
61	№8-sonli MTT	М.Улуғбек МФЙ	42	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
62	№9-sonli MTT	Қизилработ МФЙ	30	1	0	0	0	0	0	0	0	1	0
63	№10-sonli MTT	Сарбозор МФЙ	37	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
64	№11-sonli MTT	Оқолтин МФЙ	25	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
65	№12-sonli MTT	Янги йўл МФЙ	31	1	0	0	0	0	0	0	0	1	0
66	№13-sonli MTT	Ялтиробод МФЙ	21	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
67	№14-sonli MTT	Қоражон МФЙ	24	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
68	№ 15- soli MTT	Уч тут МФЙ	30	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
69	№ 16-sonli MTT	Ёшкуч МФЙ	21	1	0	1	0	0	0	0	0	0	0
70	№ 17-sonli MTT	Қизилтепа МФЙ	28	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
71	"Navoiy suv ta'minoti" AJ Navbahor tuman bo'limi	Буркут МФЙ	50	4	2	1	0	1	0	0	0	0	0
72	"NAVBAHOR TEKSTIL" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Пахтакор МФЙ	713	9	1	0	1	1	1	1	1	2	1
ЖАМИ:	**72**		**7037**	**179**	**44**	**75**	**12**	**6**	**3**	**8**	**4**	**20**	**7**